



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI FANIDA NOODATIY DARSLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI.

**Shokirovaa
Dilfuzaxon**

*Qo'qon Universiteti
Boshlang'ich Ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi*

Abstract

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fanidan noodatiy darslarni tashkil etish texnologiyasi haqida so'z boradi. O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish va ular o'rtasida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Maqolada, an'anaviy darslardan farqli o'laroq, noodatiy darslar orqali o'quvchilarning til bilish ko'nikmalarini mustahkamlash, mustaqil fikrlash va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga oid metodlar va strategiyalar taqdim etiladi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga darslarni interfaol, kreativ va samarali tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Keywords : kitob, boshlang'ich ta'lim, ona tili, dars, texnologiyalar, tovushlar

Kirish

O'zbekiston Resublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Ushbu qonunning 1-moddasida shunday deyilgan. "Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat".

5-moddasida esa quyidagilar alohida takidlangan. "Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi".¹

Unli tovushlar – og'iz va bug'iz bushlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) **tovushlar**. Har bir til o'ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi **vokalizm** (**lotincha**: *vocalis* – unli tovush) deyiladi. Unli tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Mas, hozirgi **o'zbek adabiy tilida** Unli tovushlar 6 ta bulsa, boshqa **turkiy tillarda** 8 ta, 10 ta va undan ham ortiqdir. Bu miqdor **rus tilida** 5 tani, **fransuz tilida** esa 18 tani tashkil etadi.

Unli tovushlar bir necha jihatdan tasnif etiladi. Bu tasniflarning o'zbek tilidagi 6 ta unli fonema (i, e, a, o, u, o') misolida ko'rib chiqish mumkin. Unlilar dastlab tilning

¹ O'RQ-637-сoн 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida - LEX.UZ

harakati va labning holati (ishtiroki) nuqtai nazaridan turlarga ajratiladi. Tilning harakatida 2 hodisa farqlanadi: tilning yotiq (yonlama) harakati; tilning tik (vertikal) harakati. Tilning yotiq (yonlama) harakatida hosil bo'lish o'rniga ko'ra unlilar 2 turga bo'linadi: tiloldi (yoki old qator) unlilari – i, e, a hamda tilorqa (yoki orqa qator) unlilari – o, u, o'. Tilning tik harakatiga ko'ra Unli tovushlar 3 turga bo'linadi: yuqori ko'tarilish unlilari (i, u), o'rta ko'tarilish unlilari (e, o'), quyi ko'tarilish unlilari (a, o).

Labning holati (ishtiroki)ga ko'ra unlilar 2 ga bo'linadi: lablangan unlilar (u, o') va lablanmagan unlilar (i, e, a, o). Lablangan unlilar talaffuz qilingan vaqtda lablar faol ishtirok etadi: lab cho'chchayib, oldinga chiqadi, dumaloq shakl oladi. Lablanmagan unlilar talaffuzida lablar ishtirok etmaydi yoki lablar ishtiroki passiv bo'ladi.

Tovushning hosil bo'lishida ketadigan vaqtning miqdoriga ko'ra Unli tovushlar 2 turga bo'linadi: cho'ziq unli; qisqa unli. Cho'ziq unli davomli (cho'ziq) talaffuz etiladigan Unli tovushlardir. Bunday tovushlar ko'pincha ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Bu hodisa turkiy tillarning ba'zilarida, shuningdek, ayrim o'zbek shevalarida uchraydi. Mas, turkman tilida a:ch (krnim och) va ach (eshikni och), ba:r (menda bor) va bar (ishga bor), a:t (nom, ism) va at (yilqi) va boshqa Qisqa unlilar talaffuziga cho'ziq unliga nisbatan oz vaqt ketadi.

Undosh tovushlar — og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchrab paydo bo'ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat [tovushlar](#). Ularning talaffuzida havo oqimi sirg'alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o'tadi. Natijada turli jihatdan birbiridan farqli Undosh tovushlar hosil bo'ladi. Dunyodagi har bir til o'ziga xos undoshlar tizimiga ega. Tildagi undoshlar tizimi [konsonantizm](#) ([lotincha](#): *consonans* — undosh tovush) deyiladi. Undosh tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Masalan, hozirgi [o'zbek adabiy tilida](#) Undosh tovushlar soni 24 ta bo'lsa, boshqa tillarda bundan kam (mas, [turk tilida](#) 17 ta) yoki ortiq bo'lishi mumkin. Bu miqdor [rus tilida](#) 34 tani, [fin tilida](#) 14 tani tashkil etadi.

Undosh tovushlar bir necha jihatdan tasnif qilinadi: 1) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra; 2) hosil bo'lish o'rniga (nutq a'zolarining ishtirokiga ko'ra; 3) hosil bo'lish usuliga ko'ra; 4) palatalizatsiyaga (tilning qattiq tanglay tomon ko'tarilishiga) ko'ra. Ushbu tasniflarni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi 24 ta [b, v, g, d, j (jyuri), j (jo'ja), y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, g', h] Undosh tovushlar misolida ko'rib chiqish mumkin.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, Undosh tovushlar 2 asosiy turga bo'linadi: sonorlar va shovqinlilar. Sonorlar (m, n, ng, l, r) tarkibida shovqinga nisbatan ovoz ustunlik qiladi. Sh o v qinlilar esa faqat shovqindan yoki shovqinga ovoz qo'shilishidan qosil bo'ladigan Undosh tovushlardir. Ovozning qatnashishi yoki qatnashmasligiga ko'ra, shovqinli undoshlar ham 2 ga: jarangli undoshlar va jarangeiz undoshlarga bo'linadi. Jarangli undoshlar (mas, b, v, g, d, z, y) shovqinga ovoz qo'shilgan undoshlardir. Jarangsiz undoshlar esa (p, f, k, t, s, sh) faqat shovqinning o'zidan iborat bo'ladi.

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra, Undosh tovushlar 3 ga bo'linadi: lab undoshlari lablab undoshlari (p, b, m) va labtish undoshlari (v, f)dan iborat; til undoshlari — til oldi (b, p, d, t), til orqa (k, g), til o'rta (y) va chuqur til orqa (q, g', x) undoshlaridan iborat; bo'g'iz undoshi (h).

Hosil bo'lish usuliga ko'ra, Undosh tovushlar 4 ga bo'linadi; portlovchilar — nutq a'zolarining jipslashuvi va havo oqimi bosimining shu a'zolari yorib o'tishi natijasida hosil bo'ladigan p, b, t, d, k, g kabi undoshlar; sirg'aluvchilar — nutq a'zolari birbiriga yaqinlashib, havo oqimi shu tor oraliqdan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladigan v, f, z, s, j, sh, x, g' kabi undoshlar; titroq tovush — til uchining yuqori milkka tegib tegmay titrashidan hosil bo'lgan r undoshi; affrikata — portlovchi tovush bilan sirg'aluvchi tovushning yaxlit bitta tovush sifatida talaffuz qilinishidan hosil bo'lgan ch(t+sh), j(d+j), s(t+s) tovushlaridir.²

Boshlang'ich sinf o'quvchilari albatta yuqoridagi mavzular bilan tanishadilar. Bu mavzular bilan tanishtirishda yuksak pedagogic mahurat bilan bir qatorda dars turlaridan unumli foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiya maktablarida o'quvchilarni tabiatdan zavqlanishni, uni tomosha qilib, bahra olishni o'rgatadilar.

Bunday fan — “Tabiatdan zavqlanish” deb nomlanadi. Bu fan o'quvchilarga tevarak-atrof go'zalligini qadrlashni o'rgatadi. Butundunyo kompyuterizatsiyasi sababli bugungi kunda bolalar tabiat va tevarak-atrofga e'tibor qaratmaydigan bo'lib bormoqdalar. Dars paytida o'simlik va hayvonot dunyosining rivojlanishi va ularning o'zaro ta'siri xususiyatlari o'rganiladi. Boshqa darslar qatori bu fanga ham o'qituvchilar o'quvchilarga baho qo'yadilar, yil oxirida esa imtihon ham topshiriladi.³

O'zbekiston ta'lim tizmiga ham noodatit darslar kirib keldi. Masalan 2- sinf o'quvchilari o'rtasida ona tili fanidan “Unli tovushlar va harflar” mavzusida o'tkazilgan darsning ish rejasini ko'rib chiqamiz.

Ona tili 2-sinf

19.06.2024

Soatlar soni: 1 soat

Mavzuga ajratilgan vaqt: 45 daqiqa.

Dars mavzusi: Yangi bilm beruvchi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarni Unli tovushlar va harflar mavzusi bilan tanishtirish. Unli tovush va harflarga oid yangi bilm berish va tasavvur uyg'otish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarga mehmondostlik va saxiylik haqida tushuncha. Ularda mehmon kutish odobini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish.

Dars jihozi : Darslik, mavzu asosida tayyorlangan slayd, ko'rgazmali va tarqatma materiallar. Video dars.

Dars metodi: Suhbat, savol-javob, tushuntirish, didaktik o'yinlar.

Dars turi: Noan'anaviy dars. (Musobaqa dars)

Darsning borishi:

Salomlashish va davomat olinadi.

O'quvchilar musiqa ohanglari ostida kirib keladilar. Darsda 3guruhga bo'linadi. Buning uchun 3 xil shakl rasmi chiqartiriladi. Uchburchak 10ta, to'rtburchak 10ta,

² M. Hamroyev, D. Muhammedova, D Shodmonqulova, X, G'ulomova, SH. Yo'ldasheva. ONA TILI.

³ [Dunyoning turli mamlakatlaridagi maktablarda o'tiladigan .](#)

doira 10 ta. O'qituvchi u shakillarni o'quvchilarga taqtim etadi. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan shaklni tanlab olishadi va shu tariqa 3 guruhga bo'linishadi. Birinchi guruh nomi „Uchburchak” ikkinchisiniki „To'rtburchak” uchinchisiniki „Doira” bo'lishi mumkin. Agar o'quvchilar istasalar yangi nom ham o'ylab topishlari mumkin. O'quvchilar jami 30 ta bo'lib 10 tadan bo'lib bo'linishadi, shunda 3ta guruh hosil bo'ladi.

O'qituvchi doskani 3 ga bo'lib qo'yadi va guruh nomlarini har bir bo'lakka yozib qo'yadi. Guruh nomlari pasiga to'plagan ballari qayt qilib boriladi.

O'qituvchi tomonidan kirish suhbatlari o'tkaziladi.



Kirish suhbatidan so'ng mavzu qisqacha bayon etiladi.

Qoidani tushunib oling.

Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda havo og'izda to'siqqa uchramay, erkin o'tadi. Faqat ovoz eshitiladi.

O'zbek tilida oltita unli tovush bor:
a, e, i, o, u, o'.


Unli tovushni ifodalaydigan harflar ham oltita: a, e, i, o, u, o'.

1- bellashuv: 1-guruh unli tovushlarni aytilishi haqida, 2-guruh undosh tovushlarning aytilishi haqida gapirib beradiklar. 3-guruh esa ularning fikrlarini xato va kamchiliklarini tuzatadilar.

 **1-mashq. Rasmlarga qarang.**



**1-rasm. Unli
tovushning aytilishi.**



**2-rasm. Undosh
tovushning aytilishi.**

A va T tovushlarining aytilishida qanday farq bor? Qaysi tovushni aytayotganimizda og‘zimizdan chiqayotgan havo to‘siqqa uchramaydi?

Unli tovushlar – og‘iz va bug‘iz bushlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramay hosil bo‘ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar “A” tovushi ham unli tovush hisoblanadi.

Undosh tovushlar — og‘iz va bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida turli to‘siqlarga uchrab paydo bo‘ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar. “T” tovushi ham undosh tovush.

2-bellashuv:

 **2-mashq. Tovushlarni ovoz chiqarib ayting. Qaysilarida havo hech qanday to‘siqqa uchramaydi?**




Bu tovushlar qaysi harflar bilan ifodalanadi?

Quyidagi mashq doskaga yozib qo‘yiladi. Har bir guruhdan navbat bilan o‘quvchilar chiqadi. Qaysi guruh mashqni birinchi va to‘g‘ri bajarsa, o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi.

A, o, i, u, e, o‘ tovushlari to‘siqqa uchramaydi.

3-bellashuv: Quyidagi maqol avval o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi, so'ng o'quvchilar o'zlari o'qishadi. O'quvchilar maqshqni daftarlariga yozadilar va unli harflar tagiga chizishadi. Qaysi guruhning barcha a'zolari mashqni to'liq va to'g'ri bajarib bo'lsa o'sha guruh g'olib hisoblanadi.




Dam olish daqiqasi

Barmoqqa barmoq tuk-tuk, Barmoqqa barmoq tuk-tuk.

Endi mana bunday chapak chalamiz – Qo'llarimiz chiroyli. Endi mana bunday aylanamiz – Oyog'imiz chiroyli.

Endi bunday do'pillatamiz. (Ushbu dam olish daqiqasining so'zlari qo'shiq qilib aytiladi)

4- bellashuv: O'quvchilarga quyidagi rasm chiqarilgan varoq beriladi. Qaysi guruh mashqni birinchi bajarib bo'lsa o'sha guruh g'olib guruh hisoblanadi.



⁴ Ona tili 2-sinf 1- qism.

Javobi: Temur dasturxon atrofida odob bilan o'tirdi.

To'plangan ballar hisoblanadi va g'olib jamoaga 5 baho qo'yiladi.

Uyga vazifa. Mehmon mavzusida 3 ta maqol topib yozing. Unli harflar tagiga chizing.

Xolosa qilib aytishimiz mumkinki dars jarajonida an'anaviy darslar bilan bir qatorda noan'anaviy darslarning ahamiyati beqiyos. Noodatiy dars bu odatiy darsdan qochich. Masalan: dars turli hil o'yin ko'rinishida tashkil etiladi va unga nom berilari. [Zakovat darsi, Musobaqa dars, Teatrlashgan dars va hkzo bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida - LEX.UZ
2. M. Hamroyev, D. Muhammedova, D Shodmonqulova, X, G'ulomova, SH. Yo'ldasheva. ONA TILI.
3. [Dunyoning turli mamlakatlaridagi maktablarda o'tiladigan .](#)
4. Ona tili 2-sinf 1- qism.
5. [Язык птиц](#)
6. Google.com.
7. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
8. Imomaliyeva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
9. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 408-411.
10. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
11. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.